



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 5.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





YEVRIPEDNING “MEDEYA” TRAGEDIYASIDA AYOL RUHIYATI VA ADOLAT IZLANISHI

Toshpo‘latov Zayniddin Ibodullo o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
zayniddintoshpolatov15@mail.com

Zayniddinova Shohista Shuhrat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail shohistazayniddinova252@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi yunon dramaturgi Evripid yaratgan “Medeya” tragediyasining badiiy g‘oyasi, asosiy konfliktlari va bosh qahramon obrazining psixologik talqini yoritiladi. Asarda Yasonning xiyonati oqibatida Medeyaning ruhiy iztiroblari, ayollarning jamiyatdagi mavqei, qasos va adolatga intilish kabi dolzarb masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Medeya, xiyonat, qasos, ayol ruhiyati, tragediya, psixologik tahlil, Yason.

Yunon tragediyanavisligiga salmoqli hissa qo‘shgan uning Esxil va Sofokldan keyingi yana bir buyuk vakili Yevripiddir. Tragediya bahodir Yason va intiqom malikasi bo‘lmish Medeyaning nafratga aylangan muhabbatiga asoslanadi. Lekin voqealar shunday keskinlashadiki, Yason mol-dunyo, boylik, amal, martaba, obro‘, shuhrat ketidan quvib pastkashlikka borib o‘zining vafodor oilasidan kechib podshoh Kreontning qiziga uylanmoqchi, Kreontdan keyin podshoh bo‘lmoqchi. Bunday orsizlik Medeyani xo‘rlabgina qolmay uni uyatga qo‘yadi, nafratini keltiradi. Shuning uchun Medeya bir sahnada :

Elladada qolmabdi ortiq

Na nomus na ahd-u paymon.

El-yurtini tark etib insof

Uchib ketmish falakka tomon,-deya hayqiradi.

Yevripidning “Medeya” tragediyasi butun bir ruhiy va jismoniy ziddiyyatlar ustiga qurilgan drama hisoblanadi. Asarda Yasonning xiyonati Medeyaning butun hayotini izdan chiqaradi. Medeya Yason uchun vatanidan, oilasidan kechgan, lekin oxir-oqibat undagi sadoqat qadrlanmaydi. Bu holat uni og‘ir ruhiy ahvolga tushiradi. Medeyaning xatti-harakatlari shunchaki qasos emas, balki uning adolat topishga bo‘lgan ichki kurashini ham ifodalaydi. U Yasonning qilgan xiyonatiga qarshi o‘zicha adolat izlashi, o‘zi uchun “to‘g‘ri” deb bilgan yo‘lni tanlashi bilan diqqatni tortadi. Asarda Medeya o‘z sevgisi tufayli ko‘ziga boshqa hech narsa ko‘rinmay qoladi. Yason uchun hamma narsani tashlagan ayol oxir-oqibat xiyonat tufayli o‘zini butunlay yo‘qotadi. Shuning oqibatida u hatto o‘z ukasi va farzandlari haqida ham o‘ylab o‘tirmay, ularni o‘ldirishga qaror qiladi. Uning maqsadi Yasondan qasos olishga aylanib qoladi va bu yo‘lda u hech kimni ayamaydi. “Medeya” asari haqoratlangan sevgi va kuchli rashk haqida bo‘lib, unda sevgi bilan burch

o'rtasidagi kurash juda aniq berilgan. Yevripid bu asarda rashkdan qiynalgan va ichki azobga to'la qahramonlar ruhiyatini juda mohirona tasvirlay olgan. Asarning eng og'ir va fojeaviy joyi — Medeyaning farzandlari bilan bog'liq sahnadir. U bolalarini juda yaxshi ko'rgan bo'lsa-da, Yasonni eng katta dardga solish uchun shu yo'lni tanlaydi. Bu o'rinda muallif inson ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni juda aniq ko'rsatadi: bir tomonda ona mehrini, ikkinchi tomonda esa xiyonat tufayli paydo bo'lgan og'riqni ko'ramiz. Menimcha, bu tragediyaning asosiy kuchi ham shundadir — unda har bir qaror ortida og'ir iztirob, ichki kurash va o'zini yo'qotgan ayolning faryodi bor. Umuman olganda, asarda muhabbat, xiyonat, qasos va adolat kabi mavzular juda sodda, hayotiy ko'rinishda berilgan. Menimcha, "Medeya" asari odamning kayfiyati, ruhiy ahvoli va og'ir qarorlar qanday paydo bo'lishini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun asar qadimiy bo'lsa ham, bugungi kunda ham insonlar yashaydigan holatlarga juda yaqin. Buyuk shaxslarning ham muhabbati buyuk bo'lgani kabi Medeyaning nafrati ham hech so'nmaydi. Medeyani olib ketayotgan samo aravasiga ikki ajdaho qo'shilgani tasodifiy emas. Bu har qanday odamning aql-hushini qo'rqitib, mahv etgan jahl, g'azab, nafrat timsolidir. Yevripidning "Medeya" tragediyasi butun bir ruhiy va jismoniy ziddiyyatlar ustiga qurilgan drama hisoblanadi. "Medeya" tragediyasining qisqacha mazmuniga to'xtalib o'tamiz. Asarni rus tilidan Asqar Qosimov tarjima qilgan. Asardagi qatnashuvchilar, ya'ni bosh obrazlar Medeya, Yason, Kreont, Yasonning o'g'illari, enaga, chopar hisoblanadi. Asar janri tragediya bo'lib, tragediya adabiyotning dramatik tur janrlaridan biri hisoblanib fojea bilan tugaydigan sahna asarlariga nisbatan ishlatiladi. Bu asar hozirgi kunda ham kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinayotgan, ibratli so'zlarga, maqollar va iboralarga eng boy tragediya namunasi hisoblanadi. Asarni o'qish jarayonida o'quvchida hech qanday tushunarsizlik kuzatilmaydi. Negaki bu asar barchaga tushunarli, sevib mutolaa qilinadigan, hayotda ham juda ko'p voqealarga nisbatan ishlatishimiz mumkin bo'lgan maqollarga boydir. Yevripidning "Medeya" tragediyasi inson qalbidagi eng og'ir kechinmalar — muhabbat, xiyonat, rashk va qasos kabi tuyg'ular bir-biri bilan to'qnashganda qanday fojealar yuzaga kelishini chuqur ochib beradi. Medeya timsolida Yevripid inson tabiatidagi eng murakkab ziddiyyatlarni — ona mehrining cheksizligi bilan xiyonat og'rig'i o'rtasidagi kurashni mahorat bilan tasvirlaydi. Yasonning xiyonati esa bir oila, bir ona va bir inson taqdirini izdan chiqaruvchi kuch sifatida ko'rsatiladi. Bu tragediya qadimiy bo'lsa ham, undagi dard, iztirob, muhabbat va adolat izlash bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Medeya" bizga bir haqiqatni eslatadi: insonning eng katta qudrati — uning tuyg'ularida, eng katta fojeasi esa o'sha tuyg'ularni boshqara olmasligidadir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yevripid. Medeya. Rus tilidan o'zbek tiliga tarjima: Asqar Qosimov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. G'afurov B. Qadimgi yunon adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1998.
3. Jo'rayev A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.
4. Karimov N. Drama va tragediya janrlari haqida ma'ruzalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. <https://inlibrary.uz> Analysis of phrases in the tragedy “Medea”, 2023.

